

Date: 5th April-2026

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOT TARMOQLARI KESIMIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Karimov Shahbozxo‘ja Xamdjon o‘g‘li
o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiy tarmoqlari kesimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendentsiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli iqtisodiy sohalarda faoliyat yurituvchi kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlik subyektlarining o‘shish sur‘atlari, ularning YaIMdagi ulushi va ish bilan bandlikka ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tadbirkorlikni rag‘batlantirish mexanizmlari, investitsiya muhitining ahamiyati va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta’minlash, tarmoqlar kesimida resurslarni samarali taqsimlash va innovatsion loyihalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the development trends of entrepreneurial activity across different economic sectors of our country. The study examines the growth rates of small, medium, and large entrepreneurial entities in various industries, their contribution to GDP, and their impact on employment. Furthermore, mechanisms to stimulate entrepreneurship, the role of the investment environment, and ways to enhance competitiveness across sectors are identified. The results of the research contribute to ensuring sustainable economic growth, effective resource allocation across sectors, and the advancement of innovative projects.

Аннотация. В данной статье представлен научный анализ тенденций развития предпринимательской деятельности в различных экономических секторах нашей страны. В исследовании рассматриваются темпы роста малых, средних и крупных предпринимательских субъектов в различных отраслях, их вклад в ВВП и влияние на занятость. Кроме того, выявляются механизмы стимулирования предпринимательства, роль инвестиционного климата и направления повышения конкурентоспособности в экономических секторах. Результаты исследования способствуют обеспечению устойчивого экономического роста, эффективному распределению ресурсов между секторами и развитию инновационных проектов.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy tarmoqlar, rivojlanish tendentsiyalari, iqtisodiy o‘shish, investitsiya muhiti, raqobatbardoshlik, kichik va o‘rta biznes, innovatsiyalar

Keywords: entrepreneurial activity, economic sectors, development trends, economic growth, investment environment, competitiveness, small and medium-sized enterprises, innovations

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, экономические сектора, тенденции развития, экономический рост, инвестиционный климат, конкурентоспособность, малые и средние предприятия, инновации



Date: 5th April-2026



Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati markaziy o'rin tutadi. So'nggi yillarda iqtisodiy tarmoqlarda xususiy subyektlar soni sezilarli darajada oshib, ular yalpi ichki mahsulotning shakllanishi va ish bilan bandlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kichik va o'rta biznesning o'sishi nafaqat aholi turmush darajasini oshirish, balki tarmoq iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, innovatsion jarayonlarni tezlashtirish va sarmoyalarni jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tarmoqlar kesimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish sur'atlari, tarmoqdagi ulushi va istiqbolli yo'nalishlarni o'rganish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, davlat siyosati va biznes strategiyalarini shakllantirishda asosiy manba vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tadbirkorlik muhitini takomillashtirish va uning salohiyatini oshirish to'g'risida to'xtalib: "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son farmoni [4] qabul qilindi. Mazkur farmonning ijrosi yuzasidan mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda [3]. Ushbu maqsadda muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor qilindi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi bir qator litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari qisqartirildi hamda soddalashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar viloyatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va hududlarning respublika miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda iqtisodiyotning ajralmas va strategik muhim bo'g'iniga aylangan bo'lib, uning rivojlanishi nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham sezilarli o'sishni namoyon qilmoqda. Yildan-yilga tadbirkorlik sub'yektlarining soni ortib, faoliyat ko'lamlari kengayib borayotganligi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yaxshilashga, ish bilan bandlikni oshirishga hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga bevosita hissa qo'shmoqda.

Hududiy nuqtai nazardan qaraganda, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashdagi eng ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilinadi. Ushbu jarayonning samaradorligi nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy daromadlarni oshirish bilan, balki mahalliy infratuzilma va ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish bilan ham o'lchanadi. Mamlakatimiz misolida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: kichik va o'rta biznes sub'yektlariga moliyaviy va tashkilotlik ko'maklar berish, investitsiya muhitini soddalashtirish, ishbilarmonlik va soliq mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash.

Date: 5th April-2026



Natijada, hududiy tadbirkorlik sub'yektlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish va logistika sohalarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Bu esa o'z navbatida mintaqaning iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishning mazkur shakllari hududiy siyosatni shakllantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xorijiy hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlarini yaratish orqali iqtisodiy va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlikni rivojlantirishning mazkur mexanizmlari hududiy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat ishbiarmonlik muhitini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi, balki hududiy iqtisodiy strukturani diversifikatsiya qilish va mahalliy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi. Farg'ona viloyati misolida tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishi hududiy siyosatni shakllantirish, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda innovatsion iqtisodiy tizimlarni yaratish nuqtai nazaridan ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyati mahalliy mehnat bozorini jonlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini kengaytirish, shuningdek, raqamli va texnologik yangilanishlarni joriy etish orqali viloyat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va hududlararo tengsizlikni kamaytirish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi:

1. Tashkil qilish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun katta xarajat va kapital qo'yilmalar talab etmaydi.
2. Iqtisodiyotdagi ma'lum bir bo'shliqlarni to'ldiradi, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlaydi.
3. Aholini ish bilan bandligi va daromadining o'sishini ta'minlaydi.
4. Ichki bozorni zarur iste'mol tovar va xizmatlar bilan to'ldirishda asosiy yo'llardan biri bo'lib xizmat qiladi.
5. Bozorlardagi talab va savdoning o'zgarishlariga tez moslashadi.

Keyinchalik esa "Xususiy korxonalar to'g'risida" [1] gi, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" [2] gi, "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-tamoyillari to'g'risida" gi va shu kabi boshqa qonunlarning qabul qilinishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichiga o'tishi uchun mustahkam huquqiy asos vazifasini o'tadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "... Bu -xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir. Tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlarda shaxsan o'zim shunga qattiq ishonch hosil qildimki, bunday savollarni berishga ularning to'liq va qonuniy huquqi bor. Bu huquqni ular turli ma'lumotnoma, ruxsatnoma va sertifikatlar, kredit olishda necha kunlar navbatda turish, noqonuniy tekshiruvlar, boy berilgan iqtisodiy va moliyaviy foyda hisobidan qo'lga kiritgan [7]". Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini

Date: 5th April-2026



qonuniy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ular bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanib ulgurdi. mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-29-son Farmoni [5], "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" [6] gi PQ-31-son qarori chiqdi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda mazkur sohaning iqtisodiyotda bo'lganlar sonidagi ulushi rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlaridan ham yuqori darajaga yetgan. Bu mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha aniq manzilli choralar ko'rilayotganidan dalolatdir. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari rivojlanishida kichik biznesning roli beqiyosdir, chunki u nafaqat raqobat muhitini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki yirik korxonalar mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish orqali ishlab chiqarish zanjirlarining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, kichik biznes bozorning moslashuvchanligini kuchaytiradi, mavjud resurslarni samarali safarbar qiladi va soliq tushumlarining o'sishiga hissa qo'shadi. Bu jarayonlar aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash, turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes sub'yektlari, shu bilan birga, ichki bozorda raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar yetkazib berishda muhim vosita bo'lib, iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanishning ustuvor omillaridan biri sifatida qaraladi. Bu sub'yektlar orqali nafaqat iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasi amalga oshadi, balki hududiy iqtisodiyotlar o'rtasida barqaror integratsiya va milliy ishlab chiqarish potensialining kengayishi ham ta'minlanadi. Shu sababli, kichik biznesning faoliyati iqtisodiy tizimning dinamik va moslashuvchan qatlamini tashkil etadi va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, bu yangilanishlar jamiyatning turli qatlamlari uchun keng ko'lamli imkoniyatlar taqdim etdi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishni barqaror va samarali tashkil etish maqsadida bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Ushbu tamoyillar amaliy sinovlardan o'tkazilib, ularning to'g'riligi va samaradorligi jamoatchilik tomonidan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi. Bugungi kunda mazkur prinsiplar asosida mamlakatda bozor iqtisodiyoti tizimi joriy qilinib, makroiqtisodiy munosabatlar barqarorlikka erishgan va hudud iqtisodiyotida sezilarli o'sish sur'ati kuzatilmoqda.

Natijada respublikada huquqiy asoslar mustahkamlandi, bozor infratuzilmalari shakllantirildi va turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bu jarayon natijasida tadbirkorlik sub'yektlari erkin faoliyat ko'rsatishga imkon topib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangilanish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga erishmoqda. Shu yo'nalishda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsiya jalb qilish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi.

Date: 5th April-2026

Tadbirkorlik sub'yektlari sonining oshishi ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot (ko'rsatiladigan xizmatlar) hajmining o'sishi bilan kuzatiladi. Bu o'z navbatida, umuman mamlakat iqtisodiyotida ham, uning alohida tarmoqlarida ham yildan-yilga tadbirkorlik sub'yektlari rolini oshishiga olib kelmoqda. Sanoatning asosiy tarmoqlarida, ayniqsa oziq-ovqat sanoati, yengil sanoat, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati hamda sanoatida faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik sub'yektlari sonining oshib borayotganligi va ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlari qayd etilayotganligi tadbirkorlikning sanoatdagi ulushini barqaror ravishda oshib borishini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik sub'yektlarining respublikamiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan jami investitsiyalar hajmidagi ulushining oshib borishi ularning yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan investitsiya maqsadlarida jalb qilinayotgan uzoq muddatli kreditlari hajmining oshishi bilan bog'liqdir. Statistika ko'rsatkichlar dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati yil sayin oshib bormoqda. Mazkur sohalaridagi ijobiy tendentsiyalarga bozor islohotlarini iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga oid tizimli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobiga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Xususiy korxonalar to'g'risida. 11.12.2003 yil 558-II-son, <https://lex.uz/docs/-53877>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida. 2012 yil 26 aprel, O'RQ-327-son, <https://lex.uz/acts/-2004956>
3. www.lex.uz Ўзбекистон Республикаси Миллий қонунчилик базаси
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 27.07.2018 yildagi PF-5490-son, <https://lex.uz/docs/3839746>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. 03.12.2021 yil PF-29-son, <https://lex.uz/docs/-5758437>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. 03.12.2021 yil PQ-31-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5758155>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz

